

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ALIMOVA ZILOLA SAYDARIFOVNA**

**ZAMONAVIY SIYOSIY DISKURSDA HARBIY TERMINLARNING  
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 811.111'373.46:355+811.512.133'373.46:355

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологии (PhD)  
по филологическим наукам**

**The contents of dissertation abstract of Doctor of Philology (PhD)  
in philological sciences**

**Alimova Zilola Saydarifovna**

Zamonaviy siyosiy diskursda harbiy terminlarning funksional xususiyatlari (ingliz  
va o'zbek tillari misolida) ..... 3

**Алимова Зилола Сайдарифовна**

Функциональные особенности военных терминов в современном  
политическом дискурсе (на примере английского и узбекского языков) ..... 29

**Alimova Zilola Saydarifovna**

Functional Features of Military Terms in Modern Political Discourse (on the example  
of the English and Uzbek languages) .....60

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....64

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ALIMOVA ZILOLA SAYDARIFOVNA**

**ZAMONAVIY SIYOSIY DISKURSDA HARBIY TERMINLARNING  
FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5032 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash web-sahifasi ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim tarmog‘ining ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Ergasheva Guli Imoil qizi**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Siddikova Iroda Abduzuxurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Kurganov Anvarjon Muxtorovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; email: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati** Jahondagi vaziyat ham iqtisodiy, ham siyosiy qarama-qarshiliklar markazidir va bularning barchasi u yoki bu tarzda butun dunyo hamjamiyati ishtirok etadigan cheksiz mahalliy mojarolar orqali tasdiqlanmoqda. Ana shu voqealardan kelib chiqib, ommaviy axborot vositalari (OAV)ga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki aynan ular jamiyat ongiga siyosiy ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Siyosiy diskursning ajralmas qismi bo'lmish harbiy terminlardan foydalanish esa auditoriyaga emotsional-psixologik ta'sir ko'rsatish funksiyasini amalga oshirishning eng qulay usuli hisoblanadi. Shu sababli, siyosiy diskursda harbiy terminologiyaning lingvistik xususiyatlarini o'rganish alohida e'tiborga loyiqdir.

Dunyodagi har qanday jamiyatda harbiy terminologiya siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Insoniyatning butun tarixi, ma'lum darajada, urushlar tarixidir. OAV turli siyosiy voqealarni, jumladan, armiya xayoti, harbiy, siyosiy masalalar, harbiy mojarolar va terroristik xujumlarni yoritish imkoniga ega bo'lgan zamonaviy sharoitda harbiy terminlar siyosatchilar, jurnalistlar, diplomatlar, shuningdek, oddiy xalq tomonidan muntazam ravishda qo'llanilib kelinmoqda. Boshqacha aytganda, harbiy terminlardan foydalanish faqatgina harbiy mutaxassislar tomonidan turli harbiy harakatlar va armiyaning kundalik hayotida foydalanish doirasidan allaqachon boshqa sohalarga ham ko'chib ulgurgan.

Mamlakatimizda harbiy leksikaning bugungi kunda dolzarbligi doimiy rivojlanib borayotgan taktika, siyosiy aloqalar bilan bir qatorda, ustav va siyosiy muzokaralarda xalqaro vositachi vazifasini o'tayotganligi bilan xarakterlanadi. So'nggi yillarda harbiy sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, ushbu sohalarda yuzaga keladigan madaniy va mafkuraviy farqlarga qiziqish ortdi. Ahamiyatli jihati harbiy tarjimadagi o'zgarishlar, tadqiqotlarning rivojlanishi va ko'llanilishi borasidagi ajoyib o'sishlar kuzatilmoqda. Shunga qaramay, bu sohaning ilmiy jihatdan chuqur o'rganilmagani va xanuzgacha rus tili orqali tarjima qilinishi, harbiy terminlarning ona tiliga ma'nolarini saqlagan holda tarjima qilish kabi masalani ilgari suradi. Tarjimadagi umumiy harbiy muammolarni o'rganish tadqiqotchilarning e'tiborini qaratish orqali yechimini topishi tarjimashunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ona tilimiz bilan bir qatorda ingliz tiliga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy termin va iboralar kirib kelmoqda. Shunga ko'ra, nafaqat o'zbek tilidagi balki ingliz tilidagi turli terminologik qatlamlarni qiyosiy-tipologik aspektida tadqiq qilish davr taqazosidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish", "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3735-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

o'shirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 10-fevraldagi 75-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, harbiy sohaga oid 2018-yilning 9-yanvarida qabul qilingan Mudofaa doktrinasining 6-band, 2021-yil 30-sentyabrdagi PQ-5247-son "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy davlatlar harbiy kadrlarini tayyorlash va o'qitish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yilning 13-yanvaridagi Kosmik faoliyatni amalga oshirishning asosiy maqsadlaridan biri O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashishning asosi bo'lgan "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-1017-son, Xavfsizlik kengashining 2021-yil 12-yanvardagi "Mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida davlat tilini keng tatbiq etish va harbiy leksikonni boyitish masalalari"ga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari bilan rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Diskurs nazariyasi muammosi bugungi kungacha jahon tilshunosligida Z.Harris, M.Fuko, G.Brown & G.Yule, Y.S.Kubryakova, N.D.Arutyunova, M.L.Makarov, V.I.Karasik<sup>1</sup> va boshqalar ishlarida ko'rib chiqilgan bo'lsa, institutsional diskurs L.S.Beylinson, G.Diani, T.Koole va boshqalar, siyosiy diskurs E.V.Budayev, S.V.Ivanova, M.V.Ilin, Ye.A.Naximova, Ye.O.Oparina, A.P.Chudinov, V.Ye.Chernyavskaya,

---

<sup>1</sup> Harris Z. Discourse analysis // Language, 1952. – № 1; Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. – Chicago, IL: The University of Chicago Press, 1983; Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация [Текст]: сборник работ / Т.А. ван Дейк; составление В.В.Петрова; пер. с англ. яз. под ред. В.И.Герасимова; вступ. ст. Ю.Н.Караулова, В.В.Петрова. – М.: Прогресс, 1989; Fairclough M. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992; Brown G., & Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983; Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике / Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональные и структурные аспекты: Сб. обзоров / РАН ИНИОН (Серия: Теория и история языкознания). – М., 2000; Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990; Каплуненко А.М. Курс дискурса: под флагом Фуко // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета, 2013. – № 4; Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК Гнозис, 2003; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.

Ye.I.Sheygal, F.Ferrari, J.Pratt, T. van Dijk va boshqalar e'tiborga molikdir. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotida D.Ashurova, Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Nurmonov, U.Rahimov, Z.Burxonov, D.Lutfullayeva, M.Haynazarova va Qurbonovalarning<sup>2</sup> izlanishlarini alohida qayd etish lozim.

O'zbek tilshunosligida terminlar va ularning tarjimasiga yondashuvlarining o'ziga xos xususiyatlari bir qancha tilshunos olimlar ishlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, S.Akobirov, S.Azizov, E.Begmatov, S.Usmonov, P.Nishonov, O.Axmedov, X.Paluanova<sup>3</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida namoyon bo'ladi.

Harbiy terminologiya rivojiga H.Dadaboyev, H.Yodgorov, S.Erkinov, A.Kurganov, L.Muxamedov, N.Imomiddinova va L.Kazakova<sup>4</sup> kabi olimlar o'z hissasini qo'shishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasining "Tarjimashunoslik va tarjima didaktikasining dolzarb muammolarini tadqiq etish" mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** publitsistik matnlardagi siyosiy diskursda harbiy sohaga oid terminlarni struktur-semantik, pragmatik hamda tarjima xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida harbiy terminlarning intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida tadrijiy rivojlanish bosqichlarini ularning siyosiy matnlarda faol namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra aniqlash;

<sup>2</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 318 b; Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1986. – № 6. – B. 28-31; Нурмонов А. Қўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси (-дан ташқари конструкцияси) // Танланган асарлар. 3 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 376 б; Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 1994. – ; Hakimov M. Tagma'no va tagbilim xususida ba'zi mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2001. – № 1; Burhonov Z. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt). Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 2008; Lutfullaeva D. O'rniga ko'makchilik konstruktsiyalar presuppozitsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1996. – № 5; Haynazarova M. So'roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi. Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T., 1999; Qurbonova M. O'zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti. – T., 2018.

<sup>3</sup> Акабиров Ф. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1969. – 25 с.; Азизов С. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1981. – 160 с.; Бегматов А.Э. Хозирги ўзбек тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 56-75; Усмонов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2005. – 178 б.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2009. – 152 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2016. – 255 б.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион семантик принциплари. Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2016. – 231 б.

<sup>4</sup> Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1981. – 176 с.; Yodgorov H.E. O'zbek tili harbiy terminologiyasining sinxron tadqiqi. Filol. fan. dok. ... diss. – T., 1996. – 163 b.; Erkinov S.E. Harbiy kasbga oid lisoniy birliklarning sistem-funksional xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida). Filol. fan. dok. ... diss. – Samarqand, 2020. – 138 b.; Kurganov A.M. Ingliz va o'zbek tillarida harbiy terminlar qo'llanilishining lingvomadaniy xususiyatlari. PhD ilmiy darajasini ... diss. – T, 2021. – 154 b.; Muxamedova L.D. Ingliz tili harbiy terminologiyasidagi galitsizmlar va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari. – PhD ilmiy darajasini ... diss. – Vuxoro, 2021. – 45 б.; Имомиддинова Н.А. Хозирги хитой тилидаги ҳарбий терминлар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2023. – 63 б., Kazakova.L.M.. Nemis va o'zbek tillaridagi harbiy texnikaga oid terminlarning semantikasi va leksikografik xususiyatlari: Филол. фан. бўйича фал. докт... (PhD) автореф... – Т., 2025. – 51 б.

chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida siyosiy diskursning harbiy va OAV diskurs turlari bilan gibridlashuvi asosida xosil bo‘lgan nutq aktlarining ijtimoiy ta’sir kuchi hamda publitsistik matnlarda qo‘llanilishiga muvofiq faollik darajasini statistik tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillari siyosiy diskursida harbiy terminologiyaning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlab, harbiy sohaga oid ko‘p komponentli terminlarning semantik, morfologik va sintaktik usullar yordamida yasash xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillari siyosiy diskursida harbiy terminlarni tarjima qilishning turli usullarini tadqiq qilish, harbiy terminologiya tarjimasini va pragmatika tamoyillari hamda ularning pragmatik xususiyatlaridan foydalangan holda adekvat tarjimaga erishish usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida (2022-2025-yillarda chop etilgan) publitsistik matnlardagi ingliz va o‘zbek tillari siyosiy diskursida voqelangan harbiy terminlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy siyosiy diskursda ingliz va o‘zbek harbiy terminlarning struktur-semantik hamda tarjimadagi pragmatik aspekti tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, chog‘ishtirma, qiyosiy-tarixiy, diskursiv, struktur-semantik, pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasash modellarining affiksatsiya, suffiksatsiya, sintaktik tuzilmalar va semantik kengayish kabi intralingvistik hamda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy jarayonlarning harbiy terminologiya tizimida ifodalanishi kabi ekstralingvistik omillar ta’sirida terminlarning tadrijiy rivojlanish bosqichlari ularning siyosiy matnlarda faol namoyon bo‘lish xususiyatiga ko‘ra aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillar kesimida siyosiy diskursning harbiy va OAV diskurs turlari bilan gibridlashuvi asosida hosil bo‘lgan nutq aktlarining ijtimoiy ta’sir kuchi hamda publitsistik matnlarda qo‘llanilgan harbiy terminlarning siyosiy bayonotlar, yangiliklar va sharhlarda qo‘llanilishiga muvofiq faollik darajasi hamda miqdoriy ko‘rsatkichlari statistik tahlil asosida dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillari siyosiy diskursida harbiy sohaga oid terminlarning maxsus tizimli-lisoniy tahlil ob’ekti sifatida leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash orqali harbiy sohaga oid ko‘p komponentli terminlarning semantik, morfologik va sintaktik usullar yordamida shakllanish xususiyatlari asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillari siyosiy diskursida harbiy sohaga oid terminlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf qilishda qo‘llaniladigan turli tarjima usullari asosida siyosiy matnlarning maqsadi, auditoriyasi, konteksti kabi pragmatik xususiyatlariga ko‘ra adekvat tarjimaga erishish usullari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Ingliz tili fanidan “Amaliy topshiriqlar to‘plami (harbiy-siyosiy matnlar tahlili asosida)” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan (Amir Temur nomli DXX

Akademiyasining Chet tili (ingliz tili) modulidan mustaqil ta'lim uchun bakalavriat, magistratura va sirtqi ta'lim yo'nalishlarida foydalanib kelinmoqda);

siyosiy diskursda qo'llaniladigan 5000 ta harbiy termin va iboralardan iborat lug'at ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosliligi, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi siyosiy diskursda harbiy terminlarning tilshunoslikning zamonaviy yondashuvlari doirasida o'rganilishi, harbiy soha leksikasining tadqiqot ko'lamini yanada boyitilishi, siyosiy diskursning taraqqiyot bosqichlari va nominativ birliklariga oid ma'lumotlar asosida diskurs, diskurs turlari, pragmlingvistika sohalarini chog'ishtirma tadqiq qilinishi, harbiy terminlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning samarali usullaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy tilshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, pragmlingvistika, harbiy lingvistika (turli sohaga tegishli harbiy lingvistika), diskurs nazariyasiga bag'ishlangan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda, darslik va qo'llanmalar yaratishda, kurs ishlari, maqola va tezislarni tayyorlashda hamda harbiy ta'lim muassasalari kursantlariga ingliz tilini o'rgatishda, shuningdek, harbiy tarjimonlarni tayyorlashda qo'llanilishligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Siyosiy diskursda harbiy terminlarni tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash modellarining affiksatsiya, suffiksatsiya, sintaktik tuzilmalar va semantik kengayish kabi intralingvistik hamda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy jarayonlarning harbiy terminologiya tizimida ifodalanishi kabi ekstralingvistik omillar ta'sirida terminlarning tadrijiy rivojlanish bosqichlari ularning siyosiy matnlarda faol namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra aniqlangan xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida 2021-2022-yillarda bajarilgan AL-412104512 raqamli "O'zbekistonning geografik obyektlari uchun ko'p tildagi elektron lug'at yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida joriy qilingan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 5-iyundagi 04-01/2686-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida taklif qilingan resurslar natijalari uning mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

chog'ishtirilayotgan tillar kesimida siyosiy diskursning harbiy va OAV diskurs turlari bilan gibridlashuvi asosida hosil bo'lgan nutq aktlarining ijtimoiy ta'sir kuchi hamda publitsistik matnlarda qo'llanilgan harbiy terminlarning siyosiy bayonotlar, yangiliklar va sharhlarda qo'llanishiga muvofiq faollik darajasi hamda miqdoriy ko'rsatkichlari statistik tahlil asosidagi ilmiy natijalar IL-662204405 raqamli "Eksperimental fonetik laboratoriya yaratish (xorijiy til misolida)"

mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida joriy qilingan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 14-apreldagi 04-01/14/1806-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan resurslar ta'lim jarayoni mazmunini boyitishga erishilgan;

ingliz va o'zbek tillari siyosiy diskursida harbiy sohaga oid terminlarning maxsus tizimli-lisoniy tahlil ob'ekti sifatida leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash orqali harbiy sohaga oid ko'p komponentli terminlarning semantik, morfologik va sintaktik usullar yordamida shakllanish xususiyatlariga oid tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasi Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashlari va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan S-UZ2800-21-GR-3106 "The English Access Microscholarship Program" xalqaro innovatsion grant loyihasi doirasida joriy qilingan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 4-iyundagi 04-01/2672-son ma'lumotnomasi). Natijada taklif qilingan tavsiya va xulosalar amaliy loyiha ishlanmalarini takomillashtirishga asos bo'lgan;

ingliz va o'zbek tillari siyosiy diskursida harbiy sohaga oid terminlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf qilishda qo'llaniladigan turli tarjima usullari asosida siyosiy matnlarning maqsadi, auditoriyasi, konteksti kabi pragmatik xususiyatlariga ko'ra adekvat tarjimaga erishish usullari natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" teleradiokanali DM "O'zbekiston 24" radiokanali "Muhim mavzu" va "Radiomuloqot" eshittirishlari ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining 2024-yil 28 noyabrdagi 03-09-585-son ma'lumotnomasi). Natijada radio eshittirishlarning ilmiy metodik va amaliy dolzarbligini ta'minlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur dissertatsiya natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot ishlarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola hamda xorijiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, boblarga xulosalar, ishning umumiy xulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ilmiy tadqiqot mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo'lib, tadqiqot ishining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, tuzilishi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va

amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda eʼlon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi borasidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Siyosiy diskurs lingvistik tadqiqotlar obyekti”** deb nomlanadi. Ushbu bob diskurs, siyosiy diskurs va uning boshqa institutsional diskurs turlari bilan gibridlashuvini lingvistik hodisa sifatida nazariy tushunishga bagʻishlangan.

Bugungi kunda “diskurs” termini ijtimoiy fanlarda eng dolzarb va keng tarqalgan terminlardan biri boʻlib qolmoqda. Turli bilim paradigmalarda diskurs farqli maʼno va kontekstlarda qoʻllanililib, uning mazmun-mohiyatida turli tushunchalar mavjud. “Diskurs” tushunchasi fanga fransuz tilidan kirib kelgan (fransuzcha discours, inglizcha discourse, lotincha discursus “oldinga va orqaga yugurish; harakat, aylanish; suhbat” maʼnoni anglatib) boʻlib – nutq, til faoliyati jarayoni; soʻzlashish usulidir. Bir qator gumanitar fanlarda farqli maʼnolarni anglatgan terminning predmeti bevosita yoki bilvosita til, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, semiotika, sotsiologiya, falsafa, etnologiya va antropologiyaning faoliyatini oʻrganishni iborat.

Diskurs – kommunikativ hodisa boʻlib, bevosita ekstralingvistik omillar, kognitiv elementlar bilan uygʻun matn yoki nutq; kommunikant hamda kommunikativ vaziyatlarning individual va ijtimoiy xususiyatlardan iborat tarixiy davr xilma-xilligini aks ettiruvchi doimiy harakatdagi til. Diskursning turlari usul (ogʻzaki, yozma), janr (hikoya, intervyu, suhbat, tergov va hk.), uslub (maishiy, ilmiy, rasmiy, jinoiy va hk.), diskurs strukturasi (diskurs tarkibida qanday tuzilmalar-strukturalardan iborat, ular qanday boʻlaklarga ajratiladi, bir-biri bilan qanday bogʻlangan)ligiga binoan tasniflanadi<sup>5</sup>.

S.A.Danilova oʻz ishida diskurs turlarini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) axborotni uzatish kanali (ogʻzaki, yozma, elektron, gibrid diskurs turlari);
- 2) muloqotni amalga oshirish shakli (monolog, dialog, polilog);
- 3) diskursning oriyentatsiyasi (muloqotning shaxsiy va institutsional turlari);
- 4) adresatning tabiati (muloqotning yoʻnaltirilgan (shaxsli) va yoʻnaltirilmagan (shaxsli) turlari<sup>6</sup>).

Institutsional diskursning siyosiy, diplomatik, maʼmuriy, huquqiy, harbiy, pedagogik, diniy, mistik, tibbiy, biznes, reklama, sport, ilmiy, sahna va ommaviy axborot turlari mavjud. Bizning ishimiz zamonaviy siyosiy diskursda harbiy terminlarning funksional xususiyatlari boʻganligi sababli, biz, institutsional diskurs turi boʻlgan siyosiy diskurs hamda diskursning gibrid shakllariga toʻxtalishni oʻrinli deb topdik. Siyosiy diskurs muloqotning turli koʻrinishlarida namoyon boʻladi, masalan, intervyu, gazeta hamda internet maqolalariga izohlar, konferensiya, saylov kompaniyasi, ommaviy nutq soʻzlash va kelishuvlar/kelishuvlar.

Diskurs va tilda ifodalangan ijtimoiy assimetriyani tanqidiy oʻrganish R.Vodak, T.A.van Deyk, T.van Leuven va boshqalarning ishlarida namoyon boʻladi. Ushbu yoʻnalishga hos ishlarda tildan xokimiyat va ijtimoiy nazorat vositasi sifatida

<sup>5</sup> Кибрик А.А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе. Дис. ... д-ра. филол. наук: 10.02.19 / Андрей Александрович Кибрик. – Москва, 2003. – 90 с.

<sup>6</sup> Данилова С.А. Типология дискурса / С.А.Данилова // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2015. – № 1. – С. 345-349.

foydalanish muammosi yoritilgan. Turli natijalar tahlillarini umumlashtirib R.Vodak “Institutlar status (maqom)ga yo‘naltirilgan tashkilotlar: <...> ma‘lum bir ijtimoiy qatlam, jins, yosh, ta‘lim va hokazolarga tegishli bo‘lib, o‘ziga xos tarzda ma‘lum sharoitda va institutsional idrok hamda munosabatlarda muhim rol tutganligi sababli bir-biriga chambarchas bog‘liq” deya ta‘kidlaydi<sup>7</sup>.

Siyosiy diskurs borasida so‘z borar ekan, T.Van Deyk “Siyosiy diskurs – ma‘lum ijtimoiy soha, ya‘ni sohasi bilan cheklangan janrlar sinfi”<sup>8</sup>, deya ta‘kidlasa, Elena Sheygal ham “Siyosiy diskurs – siyosat sohasi bilan bog‘liq nutqiy tuzilmalardir”<sup>9</sup> deya olimning fikriga qo‘shiladi. Olimlarning siyosiy diskursda ma‘lum sohada aynan siyosatchilar tomonidan olib boriladigan nutqiy muloqot degan fikri hamohang.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning muhim jahatlaridan biri bo‘lib shakllangan siyosiy diskurs, bilim va harakatlarning murakkab til birligini ifodalaydi. Siyosiy diskursni amalga oshirish ekstralingvistik faktorlar hamda diskurs mavjud bo‘lgan sharoitda mavjud kognitiv strukturalarning mavjudligidadir. Siyosiy diskursning ijtimoiy maqsadi uning adresatlariga, ya‘ni jamiyat fuqarolariga “siyosiy jihatdan to‘g‘ri” deb qaralgan harakatlar yoki baholash zarurligini singdirishdir. Demak, siyosiy diskurs tasvirlash (ya‘ni murojaat qilish) emas, balki ishontirish, adresatda ishonch uyg‘otish va harakatga undash uchun zamin yaratishdan iborat<sup>10</sup>. Shu sababli siyosiy diskursning samaradorligini ayni maqsad bilan bog‘liq holda aniqlash mumkin.

Rut Vodak: “Diskurs mustaqil o‘rganiladigan maydon emas, u nafaqat “uslub”, balki yaratish hamda idrok etish nazariyalari majmui sifatida ham tushuniladi” degan fikrni ilgari suradi<sup>11</sup>.

O.L.Mixaleva, kommunikativ strategiyani kommunikativ akt yuzaga keladigan subyektiv va obyektiv shart-sharoitlar va omillarni hisobga oladigan, ichki va tashqi tekshiruv strukturalari hamda aniq lingvistik vositalardan foydalanishni hisobga oladigan kommunikativ niyatlarni optimal amalga oshirish rejasi sifatida tushunadi<sup>12</sup>. Kommunikativ strategiyalar amalda oshirishda so‘zlovchining maqsadi bilan belgilangan va til vositalaridan foydalanishga moslashgan usullar yig‘indisida taqdim etilgan taktikalar mujassamligida qo‘llaniladi.

O.L. Mixalevaning fikriga ko‘ra, tanlangan aloqa usuli – kuzatuvchi-adresat va qarama-qarshi tomonlarning mavjudligi kabi siyosiy diskursning tarkibiy xususiyatlarining ta‘siri natijasidir. Natijada raqibning mavqeini pasaytirish, uni e‘tiborga loyiq bo‘lmagan ahamiyatsiz siyosatchi sifatida ko‘rsatish va o‘z

<sup>7</sup> Водак Р. Язык. Дискурс. Политика / Пер. с англ. и нем. – Волгоград: Перемена, 1997. – 139 с.

<sup>8</sup> Teun A. van Dijk Racism at the Top. Parliamentary Discourses on Ethnic Issues in Six European Countries. With Ruth Wodak. – Klagenfurt: Drava Verlag, 2000. – 86 p.

<sup>9</sup> Sheygal E.I. (2004). Semiotika politicheskogo diskursa [Semiotics of political discourse]. – Moscow: Gnozis, 2004. – 325 p.

<sup>10</sup> Bayley P. Cross-Cultural Perspectives on Parliamentary Discourse (Discourse Approaches to Politics, Society and Culture). – Amsterdam & Philadelphia, John Benjamin Publishing Company, 2004. – 390 p.


<sup>11</sup> Fairclough N. and Wodak R. (1997) ‘Critical discourse analysis’, in T. van Dijk (ed.), Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. Vol. 2. – London: Sage, 1997. – P. 258-84.

<sup>12</sup> Михалева О.Л. Политический дискурс. Специфика манипулятивного воздействия. – Москва: Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2009. – С. 10-23.

ahamiyatini oshirishga imkon beradigan strategiyalarni tanlash zarurati tug'iladi. So'zlovchi adresatga hissiy jihatdan ta'sir qilishorqali, uni siyosiy tomoshaga jalb qilishga harakat qiladi.

Diskurs kommunikativ, struktur-sintaktik, strukyur-stilistik va ijtimoiy-pragmatik funksiyalarni, siyosiy diskurs esa kommunikativ, undovchi, emotiv, metayalingvistik va fatik funksiyalarni bajaradi. Ko'rinib turibdiki, siyosiy diskurs adresatga turli ko'rinishdagi til birliklari va standart nutq faoliyatlarining semantikasi hamda funksiyalari modifikatsiyasi sodir bo'ladigan belgilar tizimining bir ko'rinishi sifatida tavsiflangan ta'sir qilish darajasidir. Siyosiy diskurs funksiyalarining foiz ko'rsatkichi ishlab chiqildi.

**1-rasm. Siyosiy diskurs fuksiyalarining foiz ko'rsatkichi**



Ilmiy adabiyotlarda tanqidiy diskurs tahlilining bir qator xarakterli xususiyatlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida, quyidagi xulosaga keldik, berilgan xususiyatlarning har biri begonalikning diskursiv qurilishi muammosini aks ettiradi va siyosiy muloqotda ushbu hodisaning talqiniga ta'sir qiladi: 1. Tanqidiy diskurs tahlili (TDT) diskursiv metodlarga tegishli bo'lib, ular yordamida ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy o'ziga hosliklardan iborat ijtimoiy dunyoni o'rnatishga hissa qo'shgan ishtimoiy amaliyotning muhim shakli bo'lgan matn, tuziladi (yaratiladi) hamda foydalaniladi (qabul qilinadi va interpretatsiya qilinadi). 2. Diskurs tahlili doirasida diskurs nafaqat ishtimoiy duyoni o'rnatadi, balki boshqa ishtimoiy amaliyotda ham o'rnatadigan ishtimoiy amaliyotning shakli sifatida o'rganiladi. 3. TDT ijtimoiy o'zaro muloqotda tildan foydalanishning o'ziga xos lingvistik matn tahlili bilan shug'ullanadi. 4. TDT tahlil qilinayotgan matnga ta'sir etuvchi omillarning keng doirasida matnni diskursning boshqa turlari (intertekstuallik va interdiskursivlik) bilan bog'laydi. 5. TDT tanqidiy yondashuv sifatida taqdim etiladi, bu tadqiqotchining diskursni izohlash va tushuntirish jarayonida majburiy ishtirokini nazarda tutadi<sup>13</sup>.

<sup>13</sup> Йоргенсен М.В. Дискурс-анализ. Теория и метод / М.В.Йоргенсен, Л.Дж.Филлипс / пер. с англ. 2-е изд., испр. – Харьков: Гуманитарный центр, 2008. – 352 с.; Fairclough N. Critical discourse analysis / N.Fairclough, R.Wodak // Discourse as a social interaction. Discourse studies: A multidisciplinary introduction. Vol. 2 / ed. by T.A. van Dijk. – London: SAGE Publications, 2004. – P. 258-284; Methods of critical discourse analysis / ed. by R.Wodak,

Institutsional diskursga oid har bir diskurs bir-biri bilan qo‘shilib gidrid diskurs shakllarini yasaydi. Siyosiy diskurs chegaralarining noaniqligi tufayli biz ko‘pincha uning boshqa diskurs turlari bilan kesishishini kuzatamiz. Elena I. Sheigal<sup>14</sup>, ushbu hodisani o‘rganar ekan, siyosiy diskurs va boshqa muloqot turlari o‘rtasidagi quyidagi kesishish nuqtalarini aniqlaydi: yuridik diskurs, ilmiy diskurs, media diskurs, pedagogik diskurs, reklama diskursi, diniy diskurs, kundalik diskurs, badiiy diskurs, harbiy diskurs, shuningdek, sport o‘yinlari diskursi. Masalan, harbiy va siyosiy diskurslar gibridlashuvi natijasida harbiy-siyosiy diskurs yuzaga keladi. Interdiskursivlik istalgan soha diskursiga tegishli bo‘lishi mumkin.

M.N. Grachev siyosiy kommunikatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Siyosiy muloqot – bu axborot almashish, siyosiy axborotni uzatish, siyosiy faoliyatni tizimlash va unga yangi mazmun berish jarayonlari yig‘indisidir”<sup>15</sup>.

Tadqiqotchilar diskurslar alohida holda mavjud bo‘lolmasligini, ular doimiy ravishda o‘zaro aloqada bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar<sup>16</sup>. Shu fikrdan kelib chiqib, biz ham fransuz olimi M. Pesho diskurs doim o‘tmishdagi diskurs materialiga asoslanadi, degan xulosasiiga qo‘shilamiz. O‘z navbatida, M. Pesho interdiskursivlik kategoriyasini kiritadi, buni u avval yuzaga kelgan umumiy diskurslar to‘plamini tashkil qiladigan, bir diskursda boshqa turdagi diskurslarning belgilari mavjudligi sifatida tavsiflaydi<sup>17</sup>.

Biz ommaviy axborot vositalari jadal rivojlanayotgan davrda yashayapmiz, shu bilan birga, til ham rivojlanmoqda va ta’sir o‘tkazuvchi vazifasini bajarmoqda. Til va jamiyat doimiy aloqada bo‘lib, bir-biriga ta’sir qiladi: til o‘z so‘zlovchilarining ta’sirida bo‘ladi, shuningdek, siyosiy hodisalarni tushunishning muhim vositasidir. Siyosat kontekstida tilning ta’sir kuchi yuqori darajada namoyon bo‘ladi hamda omma ovozigacha erishish va fuqarolarning siyosiy qarashlarini shakllantirish vositasi sifatida insonlar ongiga katta ta’sir ko‘rsatadi<sup>18</sup>.

OAVda asosan publitsistik uslubdan foydalaniladi. Uslub – bu til vositalarini (so‘z, ibora, grammatik shakl, gap tuzilishi va boshqalar) ma’lum maqsad, vaziyat va auditoriyaga mos holda tanlab, o‘zaro bog‘liq va bir butun qilib ishlatish usulidir. Publitsistik uslub – bu ijtimoiy munosabatlarning siyosiy, harbiy, iqtisodiy, madaniy, sport va boshqalar kabi turli sohalarida keng qo‘llaniladigan funksional uslublardan biridir. Bu uslubda dalillilik, hissiylik va ijtimoiy baholash ustuvor. Bundan tashqari,

---

M. Meyer. Second edition. – London: SAGE Publications Ltd, 2009. – 204 p.; Meyer M. Between theory, method, and politics: Positioning of the approaches to CDA / M. Meyer // Methods of critical discourse analysis / ed. by R. Wodak, M. Meyer. – London: SAGE Publications Ltd, 2001. – P. 14-31.

<sup>14</sup> Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса / Е.И. Шейгал. – Волгоград: Перемена, 2000. – 440 с. Текст: непосредственный.

<sup>15</sup> Грачев М.Н. Политическая коммуникация: теоретические концепции, модели, векторы развития. Монография. – М., 2004. – 328 с.

<sup>16</sup> Георгинова Н.Ю. Интердискурсивность, интертекстуальность, полифония: к соотношению понятий / Н.Ю. Георгинова. Текст: непосредственный // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С.Пушкина, 2014. Т. 1. – № 1. – С. 149-155.

<sup>17</sup> Пешё М. Прописные истины. Лингвистика, семантика, философия / М. Пешё. Текст: непосредственный // Квадратура смысла: Французская школа анализа дискурса: Пер с фр. и португ. / Общ ред. и вступ. ст. П. Серию; предисл. Ю.С. Степанова. – М.: ОАО ИГ Прогресс, 1999. – С. 225-290. ISBN 5-01-004414-5.

<sup>18</sup> Демьянков В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии [Электронный ресурс]. URL: <http://www.philology.ru/linguistics1/demyankov-02.htm>].

“gazeta-publitsistik uslub”, “gazeta uslubi”, “gazeta-jurnal uslubi” va “siyosiy uslub” kabi terminlar “publitsistik uslub” terminining o‘rnida ham foydalaniladi.

Siyosiy diskursning ommaviy axborot vositalari diskursi bilan kesishishi: zamonaviy siyosiy hayotning o‘ziga xos xususiyati, bugungi kunda siyosatchilar tobora fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishishlari pasayib, OAV vositalaridan ko‘proq foydalanishlaridadir. OAV diskursida jurnalistlar jamoatchilik fikrini shakllantirishga hissa qo‘shda professional siyosatchilar va noprofessional arauditoriya o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Asosan, siyosat haqida so‘z yurituvchi va muallifi siyosatchi bo‘lgan yoki aksincha, siyosatchiga qaratilgan OAVdagi har qanday material siyosiy diskurs maydoni sifatida tasniflanishi kerak<sup>19</sup>.

Shubhasiz, gap siyosiy diskur haqida borar ekan, uning bugungi kunda siyosiy muloqotni amalga oshirishning asosiy kanali bo‘lgan OAV diskursi bilan aloqasi alohida o‘rin tutadi. Vladimir I.Karasik<sup>20</sup>, OAV diskursi institutsional diskursning bir shakli ekanligini ta’kidlaydi, chunki u ijtimoiy yo‘naltirilgan va ijtimoiy maqom-rol munosabatlari doirasida muloqot o‘rnatadi. Har bir mamlakat OAV diskursida alohida ijtimoiy guruhlarining milliy-madaniy xususiyatlari va siyosiy-pragmatik manfaatlarini o‘z aksini topadi. OAV orqali jamiyatga ta’sir o‘tkaziladi va unda siyosat, iqtisod va madaniyatga oid ma’lum stereotipik g‘oyalar shakllanadi.

Tadqiqotchilar T.G.Popova va N.V.Taratinovalar o‘z ishlarida ta’kidlashlaricha, siyosiy diskurs matnlari umumiy qabul qilingan va mualliflik huquqi bilan himoyalangan qisqartmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi, masalan, **WMD – ommaviy qirg‘in qurollari, G8 – Katta Sakkizlik, GDP – yalpi ichki mahsulot**. Ingliz tilidan o‘zlashgan terminlardan foydalanish ham mavjud<sup>21</sup>. Masalan, qisqartmalar: **“IS” – Islamic State, “THB ” – Trafficking in Human Beings**; o‘zlashmalar: **“rezolyutsiya”, “okkupatsiya”, “bufer zonasi”**<sup>22</sup>.

Siyosiy diskurs havolalar va iqtiboslardan foydalanish bilan tavsiflanadi va ularda, qoida tariqasida, aniq manbalar ko‘rsatiladi. Unda ko‘pincha mashhur tarixiy shaxslarga tegishli iboralar mavjud<sup>23</sup>. Misol tariqasida siyosatchilar nutqidagi quyidagi iboralarni keltiramiz: **“vicious, violent, and unfair weaponization”** (The White House – The Inagural address – President Donald Trump, 2025)<sup>24</sup>, **“the resilience of our Constitution”** (The White House – The Inagural address – President Joe Biden, 2021)<sup>25</sup>.

<sup>19</sup> Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса [Текст] / Е.И.Шейгал. – М.: Волгоград, 2000. – 324 с.

<sup>20</sup> Карасик В.И. О типах дискурса / В.И.Карасик. Текст: непосредственный // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: Сборник научных трудов / под редакцией В.И.Карасика, Г.Г.Слышкина. – Волгоград: ВГПУ Перемена, 2000(а). – С. 5-20.

<sup>21</sup> Попова Т.Г. Политический текст и его лексические особенности / Т.Г.Попова, Н.В.Таратынова. Текст: непосредственный // Вестник Московского государственного гуманитарного университета им. М.А.Шолохова. Филологические науки, 2012. – № 3. – С. 90-97.

<sup>22</sup> “Jo‘lan tepaliklari Isroilga sovg‘a qilindimi?” // <https://kun.uz/news/2024/12/10/jolan-tepaliklari-isroilga-sovg-a-qilindimi>. 10.12.2024.

<sup>23</sup> Попова Т.Г. Политический текст и его лексические особенности / Т.Г.Попова, Н.В.Таратынова. Текст: непосредственный // Вестник Московского государственного гуманитарного университета им. М.А.Шолохова. Филологические науки, 2012. – № 3. – С. 90-97.

<sup>24</sup> <https://www.whitehouse.gov/remarks/2025/01/the-inaugural-address/>

<sup>25</sup> <https://uz.usembassy.gov/inaugural-address-by-president-joseph-r-biden-jr/>

Institutsional diskursning yana bir turi harbiy diskursning lingvistik jihatlarini o'rganish axborot urushlarining lingvistik vositalari haqida yangi bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, jamoat ongini boshqarish usullarini aniqlash imkonini beradi. Hanuzgacha harbiy-siyosiy diskurs mustaqil diskursning bir turimi yoki u siyosiy diskursning ajralmas qismimi<sup>26</sup>, harbiy diskurs yoki OAV diskursimi kabi savollar bo'yicha bir to'xtamga kelinmagan. Shu sababli, kimlarni harbiy-siyosiy diskursning agentlari deb hisoblash borasida aniq fikrlar mavjud emas: ular faqatgina hukumat vakillaridan iboratmi yoki OAV vakillarini harbiy-siyosiy diskursning to'laqonli agentlari deb hisoblash mumkinmi degan savollar yuzaga keladi.

Siyosiy va harbiy diskurslarning kesishishi: harbiy hamda siyosiy diskurs o'rtasidagi o'zaro ta'sir – harbiy doktrina, harbiy-siyosiy kelishuv/bitim, ultimatum, tinchlik muzokaralari (mafkura va harbiy harakatlar jarayonini nizodagi davatlar pozitsiyalaridan ta'minlaydigan janrlar) kabi sohalarda o'z aksini topadi.

Harbiy-siyosiy matnlarda turli leksik vositalar, morfologik kategoriyalar, sintaktik konstruktsiyalar va inson ongiga ta'sir etishning boshqa usullari yordamida real maqsadlar yashiringan bo'lishi mumkin. Shu sababli, urush o'zgacha qabul qilinadi. Bu go'yoki boshqa voqelikdek qabul qilinib, siyosatchilar foydasiga xizmat qiladi. Bugungi kunda urush real harbiy harakatlar va zo'ravonlikdan uzoq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, evfemizmlarni ham o'z ichiga olgan lingvistik vositalar yordamida insonning kognitiv va kundalik xatti-harakatlariga yashirin ta'sir – ong manipulyatsiyasi amalga oshiriladi hamda tushunchalar o'zgartiriladi<sup>27</sup>.

Harbiy-siyosiy diskursni o'rganish zarurati "hukumat va harbiy amaldorlar o'z diskurslarini qonuniy deb e'lon qilishlari va bu orqali urush tanqidchilarining sa'y harakatlarini neytrallashtirish" bilan izohlanadi<sup>28</sup>. Ta'kidlash joizki, harbiy-siyosiy diskursni o'rganish T. van Deyk tomonidan taklif qilingan tanqidiy diskurs tahlilining maqsadlariga mos keladi, ular orasida "hokimiyatni suiiste'mol qilishda diskursning rolini o'rganish" muhim rol o'ynaydi<sup>29</sup>.

Siyosiy va harbiy arboblarni, OAV vakillari yoritgan voqealarga yo ijobiy ma'no yoki muxim ahamiyat berishga urinib, jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilish vositalariga murojaat qiladilar, buning natijasida esa sodir bo'layotgan voqealar mazmuni o'zgarib ketadi.

Demak, zamonaviy diskursga xos bo'lgan quyidagi tendentsiyalarni ta'kidlash o'rinlidir:

1. Harbiy-siyosiy diskurs institutsional diskursning bir bo'lagi sifatida qabul qilinadi;
2. Harbiy-siyosiy diskursning gibridd xarakteriga alohida e'tibor qaratiladi;
3. Tadqiqotchilar harbiy doktrina va davlat mafkurasi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni, shuningdek, jamiyatda harbiy-siyosiy diskursning takrorlanishini

<sup>26</sup> Мартюшова Н.О. Военно-политический дискурс в аспекте эвфемии / Н.О.Мартюшова // Иностранные языки и межкультурная коммуникация: современные векторы развития и перспективы: сб. ст. – Москва: Буки Веди, 2017. – С. 72-87.

<sup>27</sup> Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи [Текст] / Л.П.Крысин // Русистика. – Берлин, 1994. – № 1, 2. – С. 28-49.

<sup>28</sup> Gay W.C. The language of war and peace / W.C.Gay // Encyclopedia of violence, peace, and conflict / ed. by L.R.Kurtz, J.Turpin. – Cambridge: Academic Press, 1999. – P. 303-312.

<sup>29</sup> Dijk T.A. van. Principles of critical discourse analysis / T.A. van Dijk // Discourse & Society, 1993. – № 2. – P. 249-283.

ta'kidlaydilar; 4. OAVning alohida pozitsiyasi qayd etilib, OAV vakillari harbiy-siyosiy diskurs agenti emas, balki mijozlar sifatida tavsiflanadi; 5. Harbiy-siyosiy diskursga jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Xulosa sifatida, harbiy-siyosiy diskurs OAV diskursining bir qismi bo'lib, jurnallar, gazetalar va Internet manbalarida chop etilgan harbiy-siyosiy mavzuga oid, harbiy-siyosiy terminologiyani tashkil qiluvchi ommaviy nutqlar, materiallar dan iboratdir. Bu maqolalarda siyosiy va harbiy harakatlarni oqlash hamda keng jamoatchilikka ta'sir otkazish maqsadida evfemislardan foydalaniladi.

**“Siyosiy diskursda harbiy terminlarning struktur-semantik tahlili”** deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida termin tasnifi, harbiy terminlarning va siyosiy diskursda ko'p komponentli harbiy terminlarning derivatsion xususiyatlari tahlil qilinadi.

Termin – maxsus terminologik ma'noga ega bo'lgan, og'zaki shaklda yoki biron bir rasmiylashtirilgan shaklda ifodalanishi mumkin bo'lgan va tegishli tushunchaning ma'lum bir darajasida fan hamda texnika taraqqiyotida muhim bo'lgan asosiy xususiyatlarini juda aniq va to'liq aks ettiruvchi til birligidir.

Terminlarning mazmuni, rasmiy, funksional, intralingvistik va ekstralingvistik xususiyatlariga ko'ra turlicha tasniflanadi. Terminlarning o'ziga xosligi, shuningdek, ular bir so'z yoki ibora, so'z va harf belgili birikmalar, so'z va son-belgili birikma sifatida ifodalanishidadir.

Ma'lumki, tildagi terminlar ma'lumotni iloji boricha qisqa va to'g'ri yetkazishga intilganda paydo bo'ladi. Bu aniqlik ularni erkin va subyektiv talqin qilish imkoniyatini rad qiladi.

“Termin” va “terminologiya” masalalari borasida izlanishlar olib borilgan hamda hanuzgacha olib borilmoqda. Bu tadqiqotlarda termini ifodalovchi turli ta'riflar mavjud: “Termin” leksemasi lotincha “terminus”so'zidan shakllangan va “oxiri”, “chek”, “chegara”, “tugash” degan ma'nolarni bildiradi”<sup>30</sup>.

Termin so'zidan tashqari atama, nomenklatura va istiloh so'zlari ham termin o'rnida qo'llanilganini guvohi bo'lganmiz lekin, atama so'zidan geografik nomlar, barchaga ma'lum nomlar uchun, istiloh tarixiy terminlar uchun, termin tor doiradagi sohaga tegishli so'zlar uchun va nomenklatura esa ro'yxat, fan va texnika, iqtisodiyot, huquq va iqtisodiyot sohasida qo'llaniladigan muayyan termin hamda kategoriya nomlari ro'yxati termin nomenklaturadan kengroq tushunchadir.

Terminlarda so'zning barcha asosiy funksiyalari mujassam: nominativ, signifikativ, kommunikativ (axborot-kommunikativ), pragmatik, gnoseologik (kognitiv), metallingvistik (instrumental).

Termin muammosi harbiy tarjimada muhim o'rinlardan birini egallaydi. Barcha janrlardagi harbiy terminlarni ajratib turadigan jihat, ularning ko'plab turli harbiy terminlarga boyligidir. Harbiy ilm-fanning rivojlanishi va harbiy texnikaning yangi turlari ihtiyo qilinar ekan, dunyo bo'ylab turli davlatlarda beqarorlik hukm surar ekan, kundan-kunga yangi termin va iboralar paydo bo'lmoqda.

---

<sup>30</sup> Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М., 1998. – 503 с.

Zamonaviy tilshunoslikda mavjud bo'lgan "harbiy terminologiya" terminiga izoh berish o'rinlidir. V.N.Shevchuk harbiy terminologiyani harbiy fanning kontseptual apparatini aks ettiruvchi harbiy til terminlarining tartibli majmui sifatida qaraydi<sup>31</sup>.

Qurolli kuchlar va ularning turli harbiy bo'linmalarini ifodalovchi terminlar – bu harbiy yoki qurolli kuchlar bo'linmasining muayyan jangovar yoki tegishli faoliyatiga xos bo'lgan maxsus bilimlarni ifodalash uchun foydalaniladigan maxsus leksikadir. Ushbu terminlar qurolli kuchlarning harbiy bo'linmalari va uning tuzilishini tavsiflash uchun qo'llaniladi. Masalan, **radiotechnical corps (force), air force, airborne force, space force, The Defense Medical Services of the Armed Forces**. Shuningdek, uchbu kategoriya, turli qo'shin ko'rinishlariga xos, harbiy harakatlar bilan bog'liq qurolli to'qnashuv va boshqa harbiy faoliyat shakllarini ifodalovchi leksikadan iborat. Masalan, **an onslaught, retreat, defeat, rear, front**.

Qurolli kuchlarning tashkiliy tuzilmasini aks ettiruvchi tashkiliy terminlar shtat terminlarining bir turidir. Masalan, **a platoon-vzvod, otryad (10-50 kishi), a company / artillery battery / squadron-rota/artilleriya, eskadron (30-250 kishi), a brigade-brigada (3000-5000 kishi)**.

M.N.Latu ingliz tilidagi harbiy terminologiya rivojlanishining strukturaviy-semantik va kognitiv-freym jihatlarini tarixini o'z ichiga olgan nomzodlik dissertatsiyasida odatiy "harbiy terminologiya" iborasi o'rniga ingliz tilining "maxsus harbiy leksikasi" iborasidan foydalanadi. Bu orqali u ma'lum bir faoliyat turi rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida urush usullari va qurollarini belgilovchi birliklarni tushunadi<sup>32</sup>.

Publitsistik uslubda barcha harbiy terminlar uchrashi mumkin. Demak, bu uslub siyosat, propaganda va omma fikri bilan ham bog'liq.

Terminlar sinxron aspektda o'rganilganligi sababli biz, 2022-2025-yillarda chop etilgan ingliz tilidagi publitsistik matnlarda qo'llanilgan harbiy terminlarning tuzilishi va semantikasini aniqlash, ko'p uchraydigan harbiy terminlarning yasallishini tahlilga tortish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ingliz tilida terminlar turli usullar bilan yasaladi, lekin harbiy terminlar yasallishining eng keng tarqalgan usuli bu morfologik usul bo'lib, unga ko'ra mavjud morfemalarni o'zgartirish orqali yangi so'z yasashdir.

Murakkab harbiy terminlar ko'p komponentli tarkibga ega va bir nechta so'zlarni birlashtirgan modellardan biriga ko'ra tuzilgan. Ushbu guruhga tegishli terminlarni ikki, uch, to'rt va besh komponentli guruhlarga ajratish mumkin.

Ingliz tilida ikki komponentli terminlar **N+N, N+Adj, N+P I, Adj+N, N+P II, Number+N, Adj+P II**;

Uch komponentli terminlar **N+N+N, Adj+Adj+N, Adj+N+N**;

To'rt komponentli terminlar **Adj+N+N+N, Adj+Adj+Adj+N**;

<sup>31</sup> Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике. Дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.19. – Москва, 1985. – 488 с.

<sup>32</sup> Лату М.Н. Англиязычная военная терминология в ее историческом развитии: структурно-семантический и когнитивно-фреймовый аспекты. Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Пятигорск, 2009. – 222 с.

Besh komponentli terminlar  $N+N+N+N+N$  va  $Adj+Adj+Adj+N$  yordamida yasaladi.

Bundan tashqari **and**, **of** va **or** bog'lovchilari yordamida ham ko'p komponentli harbiy terminlar yasaliş holatlarini ham kuzatish mumkin.

Umumiy tahlilga tortilgan terminlar 1000 ta (100 %)ni tashkil qildi, ulardan,

- 314 ta (31,4 %) ikki komponentli terminlar;
- 238 ta (23,8 %) uch komponentli terminlar;
- 167 ta (16,7 %) to'rt komponentli terminlar;
- 130 ta (13 %) besh komponentli terminlar;
- 151 ta (15,1 %) and va or bog'lovchilari yordamida yasalişigan terminlar tashkil qildi.

O'zbek tilida esa harbiy terminlar quyidagicha yasalişadi:

Ikki komponentli  $Adj+N$ ,  $N+N$ ;

Uch komponentli  $Adj+N+N$ ,  $N+N+N$ ;

To'rt komponentli  $N+Adj+N+N$ ,  $Adj+N+N+N$ ;

Besh komponentli  $N+N+N+Adj+N$ ,  $N+N+N+N+N$ .

Terminlar doirasi cheklanganligini aytib o'tgandik. Biroq bu holda, harbiy terminlar ular uchun xos bo'lmagan publitsistik uslubda qo'llaniladi. Harbiy terminlarni yasalişiga ko'ra tahlil qildik va quyidagi natijalarni oldik:

- 61 ta (20,3 %)ini ikki komponentli terminlar;
- 56 ta (18,6 %)ini uch uch komponentli terminlar;
- 49 ta (16,3 %)ini to'rt komponentli terminlar;
- 40 ta (13,4 %)ini besh komponentli terminlar;
- 30 ta (10 %)ini 'va', 'yoki' bog'lovchilari orqali yasalgan ko'p komponentli terminlar;


24 ta (8 %)ini defis yordamida yasalgan ko'p komponentli terminlarni tashkil qiladi;

20 ta (6,7 %)ini qisqartmalar va abbreviaturalar orqali yasalgan ko'p komponentli terminlar;

20 ta (6,7 %)ini terminologik so'z birikmalari va soha leksikasi asosida yasalgan ko'p komponentli harbiy terminlar.

Yuqoridagi foizlar ko'rsatkichidan ingliz va o'zbek tillarida ko'p komponentli harbiy terminlarning yasaliş usullari bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini ko'rishimiz mumkin.

## 2-rasm. Ingliz va o‘zbek tillarida terminlarning komponentlar bo‘yicha taqsimot tafovuti



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak, O‘zbek tilida ko‘p komponentli harbiy terminlarning yasash usullari ko‘p qirrali va tizimlidir. Analitik (so‘z birikmalari), sintetik (sifat va ot birikmasi), bog‘lovchilar yordamida, qisqartma va soha leksikasi asosida hosil bo‘lishi harbiy matnlarda aniqlik, qisqalik va samaradorlikni ta’minlaydi. Matndagi har bir misolning ingliz tilidagi ekvivalenti O‘zbek harbiy diskursining xalqaro darajadagi moslashuvchanligini va terminlarning o‘zaro tushunarililigi ta’minlaydi.

Ko‘p komponentli harbiy terminlar harbiy matnlarning ilmiy, amaliy va tashkiliy samaradorligini oshiradi, o‘zbek tilining lingvistik resurslaridan to‘laqonli foydalanadi va xalqaro harbiy hamkorlikni yengillashtiradi. Harbiy matnlardagi real misollar asosida yasash usullari tahlili ko‘p komponentli terminlarning strukturaviy va semantik imkoniyatlarini namoyon qiladi, zamonaviy harbiy kommunikatsiyada ularning o‘rni va ahamiyatini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi yakunlovchi **“Siyosiy diskursda harbiy terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish masalasi: pragmatik aspekt”** deb nomlangan bobida harbiy terminlarning tarjima va pragmatika tamoyilida voqelanishi, ularni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari va kelib chiqadigan muammolar yoritilgan.

Tarjimaning qabul qiluvchiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholashda asosiy mezon, odatda, qabul qiluvchining matn mazmunini qay darajada anglaganidir. Bu tushuncha ko‘p hollarda qabul qiluvchining umumiy bilim saviyasi yoki boshqacha qilib aytganda, u matn yoritayotgan mavzu bilan qanchalik tanish ekanligiga bog‘liq.

A.Noybert tomonidan aniqlangan pragmatik munosabatlarning bir necha turlari mavjud. Tadqiqotchi pragmatikani tarjima nazariyasining eng muhim jihatlaridan biri sifatida ilgari surgan. “Tarjimaning pragmatik jihatlar” (1968) asarida u tarjimada asliyatning o‘z pragmatikligini saqlagan taqdirdagina adekvat deb atash mumkinligini

ta'kidlagan.<sup>33</sup>

Harbiy-ilmiy uslubdagi terminlar matnlarda ham salmoqli o'rin egallashiga qaramay, kamroq qo'llaniladi. Ular kommunikativ funksiyasini ham saqlab qoladi, chunki biz strategik harakatlar tavsifini va mojaroni hal qilish usullarini harbiy terminlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Masalan,

*At the same time, experts and international monitoring groups have long said the former **government had used chemical agents in attacks against its own people** and was manufacturing **chemical weapons** despite signing a treaty that prohibits them. The UN said there was “clear and convincing evidence” that **the nerve agent sarin** was used in Syria in 2013<sup>34</sup>. – Shu bilan birga, ekspertlar va xalqaro kuzatuv guruhlarlari sobiq **hukumat o'z xalqiga qarshi hujumlarda kimyoviy vositalardan foydalangani** va ularni taqiqlovchi shartnoma imzolaganiga qaramay, **kimyoviy qurol** ishlab chiqarayotganini uzoq vaqtdan buyon aytib keladi. BMT 2013-yilda Suriyada **asab tizimiga ta'sir qiluvchi zarin moddasi** qo'llangani haqida “aniq va ishonchli dalillar” borligini ta'kidladi<sup>35</sup>.*

Keltirilgan lavha ikki farqli mavzu – ijtimoiy va harbiy ishni bir-biriga bog'laydi. Insoniyatni muhofaza qilish muammolariga e'tibor qaratiladi, lekin ayni paytda unda Suriya armiyasining kimyoviy qurollar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan zamonaviy harbiy salohiyatini ham namoyish etadi. Bularning barchasi mamlakat armiyasining fuqarolarini xavfsizligiga tahdid solib kelganligini aks ettiradi.

Qurol va texnik jihozlarni ifodalovchi harbiy-texnik uslubdagi terminlar ham boshqa harbiy terminlariga nisbatan kam uchraydi. Ularni keng jamoatchilik tushunishi qiyin va gazetalarda kamroq qo'llaniladi. Nominativ va ta'riflovchi funktsiyalarni aks ettirgani uchun ular tushunchani ifodalaydi hamda harbiy termin tushunchasini ko'rsatadi. Shu sababli, ular ikki tomonlama talqinni istisno qilgan holda ma'noni aniq etkazishni talab qiladi. Masalan,

*The plane, carrying 67 passengers and crew members, was hit by a Russian **surface-to-air missile**, killing 38 people<sup>36</sup>. – 67 yo'lovchi va ekipaj a'zosidan iborat samolyot Rossiyaning “**yer-havo**” raketasi orqali urib tushirilishi natijasida 38 kishi halok bo'ldi<sup>37</sup>.*

Bunda tor doiradagi harbiy terminlardan foydalanish ikki davlat o'rtasidagi beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan raketaning noto'g'ri nishoni va keskin vaziyatni aks ettiradi.

Harbiy terminlarning asosiy funksiyasi axborot ulashishdan iboratligi ularning neytral xarakterga ega ekanligini anglatadi, kontekstda esa pragmatik aspekt va muallifning vazifasini aks ettiradilar. Masalan,

*Russia is also developing a **nuclear anti-satellite capability** in space. The technology, as my colleagues Alberto Nardelli, Jennifer Jacobs and Katrina Manson report, **could be deployed** as soon as this year<sup>38</sup>. – Rossiya koinotda sun'iy yo'ldoshga*

<sup>33</sup> Нойберт А. Прагматические аспекты перевода. – Лейпциг, 1968. – 253 с.

<sup>34</sup> <https://edition.cnn.com/2025/01/03/middleeast/assads-toxic-legacy-white-helmets-syria-intl/index.html>

<sup>35</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/01//assads-toxic-legacy-white-helmets-syria/>

<sup>36</sup> <https://tribune.com.pk/story/2520156/echoes-of-the-past-december-2024-aviation-crashes-mirror-decade-old-tragedies>

<sup>37</sup> <https://kun.uz/news/2024/12/27/samolyot-quladi-hafta-dayjesti>

<sup>38</sup> <https://www.bloomberg.com/news/newsletters/2024-02-23/us-russia-tensions-reach-crescendo-with-ukraine-navalny>

qarshi yadroviy qobiliyatlarni ham rivojlantirmoqda. Mening hamkasblarim Alberto Nardelli, Jennifer Jeykobs va Katrina Manson xabar berganidek, texnologiya **joriy yilning boshidayoq ishga tushirilishi** mumkin<sup>39</sup>.

Harbiy texnikani va harbiy harakatni ifodalovchi **a nuclear anti-satellite capability, could be deployed** iboralari neytral bo‘libgina qolmay, ular Rossiyaning harbiy qudrati va salohiyatini aks ettiradi, bu, shubhasiz, mushtariylarga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

OAV matnlarida harbiy terminlar pragmatik funktsiyani bajaradi, bu orqali ular aniq, tushunarli ma‘lumotlarni, tasvirlarni va madaniy xususiyatlarni yetkazib beradi. Ushbu terminlarning bir, ikki yoki uch va ko‘proq komponentli bo‘lishiga qarab, tarjimaning quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Muqobili bilan almashtirish; 2. Termini izohlab bayon qilish; 3. Ma‘no jixatdan yaqin so‘z bilan tarjima qilish; 4. Kalkalsh; 5. Tarjimada yangi so‘z yaratish; 6. Transliteratsiya/ transkripsiya.

Lekin bir, ikki, uch, to‘rt va hkz. komponentli terminlar tarjima qilinganda komponentlar soni ingliz tili bilan o‘zbek tilida ko‘p yoki kamligi bilan bir-biridan farq qilishi miumkin. Masalan, **hit-to-kill missile-nishonga to‘g‘ri /bexato teguvchi raketa**, ingliz tilida ikki komponentli termin o‘zbek tiliga to‘rt komponentli termin sifatida tarjima qilinishi mumkin.

Harbiy terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda **modulyatsiya** qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Bu usul ma‘noni mantiqiy yaxlitligini saqlab qoladi. Masalan,

*Farouq Habib, the deputy general manager of the **White Helmets**, told CNN that he believed the facility was a research lab connected to the Assad regime’s chemical weapons programs, although the group said it could not confirm this until more specialized testing has been done*<sup>40</sup>. – **“Suriya fuqarolik mudofaasi”** bosh direktori o‘rinbosari Faruh Habib CNNga bergan intervyusida bu obyekt Asad rejimining kimyoviy qurol dasturlari bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot laboratoriyasi ekanligi, ammo guruh buni maxsus tekshiruvlar o‘tkazilmaguncha tasdiqlay olmasligini ta’kidladi<sup>41</sup>.

Bu misolda **“White Helmets”, “Suriya fuqarolik mudofasi”** deb tarjima qilinmoqda lekin ma‘no jihatidan har ikkala tildagi ibora ham bir guruhning nomini ifodalash uchun ishlatilgan. Modulyatsiya mantiqiy ma‘nosini keltirish orqali asl ma‘noni saqlab qolishga xizmat qiladi. *Research lab connected to the Assad regime’s chemical weapons programs* asosiy tushuncha bo‘lib, CNN hamda ko‘ngillilar guruhi aniqlik kiritishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

**Konkretlashtirishdan** foydalanish misollarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u ham modulyatsiya kabi tez-tez uchraydi. Masalan,

*“The international community must act decisively*<sup>42</sup>”.

So‘zma-so‘z tarjima: *“Xalqaro hamjamiyat qat’iy harakat qilishi lozim”*.

<sup>39</sup> <https://kun.uz/news/2024/12/27/hafta-dayjesti>

<sup>40</sup> <https://edition.cnn.com/2025/01/03/middleeast/assads-toxic-legacy-white-helmets-syria-intl/index.html>.

<sup>41</sup> <https://kun.uz/news/2024/12/20hafta-dayjesti>

<sup>42</sup> <https://www.consilium.europa.eu/media/jhlenhaj/euco-conclusions-19122024-en.pdf>

Konkretlashtirilgan tarjima: “BMT va Yevropa Ittifoqi ushbu mojaro bo'yicha sanksiyalar hamda tinchlik o'rnatish tashabbuslarini boshlashi kerak”. Yoki

*“The United States will take appropriate measures in response to these actions.”*

So'zma-so'z tarjima: “Qo'shma Shtatlar ushbu harakatlarga javoban tegishli choralar ko'radi”.

Konkretlashtirilgan tarjima: “Qo'shma Shtatlar ushbu harakatlarga javoban iqtisodiy sanksiyalar va diplomatik bosim choralarini ko'radi”.

Tarjimaning **umumlashtirish** usuli ko'proq qo'llaniladi, bu harbiy sohaning tor doirasini bildiruvchi terminlarning tez-tez qo'llanilishi bilan izohlanadi. Masalan,

*“President Biden welcomed **the ceasefire agreement** between Armenia and Azerbaijan, brokered with the support of the European Union, and encouraged both sides to work towards lasting peace and stability<sup>43</sup>”.*

So'zma-so'z tarjima: “Prezident Bayden Yevropa Ittifoqi yordamida erishilgan Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi **o't ochishni to'xtatish kelishuvini** mamnuniyat bilan qabul qildi va har ikki tomon barqaror tinchlik yo'lida harakat qilishga chaqirdi”.

Umumlashtirilgan tarjima: “AQSh Prezidenti Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida **tinchlik o'rnatilishini** qo'llab-quvvatlaydi”.

Kelishuv tafsilotlari va Yevropa Ittifoqining roli tarjimada umumlashtirilgan.

**Kalkalash** texnikasidan ham foydalaniladi, chunki bu terminning nafaqat shakli va ma'nosini, balki uning tasviri va pragmatik ta'sirini ham yetkazish kerak. Masalan,

*A private American security company will take over **a key checkpoint** on the road to northern Gaza in the coming days as Israeli forces withdraw from the area on Saturday, a source familiar with the matter tells CNN<sup>44</sup>. – Amerikaning xususiy xavfsizlik kompaniyasi yaqin kunlarda G'azo shimolidagi yo'l ustidagi **muhim nazorat punktini** o'z qo'lga oladi, chunki Isroil kuchlari shanba kuni hududni tark etadi, deydi CNN telekanaliga masaladan xabardor manba<sup>45</sup>.*

**A key checkpoint** termini o'zbek tiliga **muhim nazorat punktini** deb tarjima qilinib, o'zbek auditoriyasi uchun tanish. Shu bilan birga, AQSh harbiylarining G'azoda tinchlik o'rnatishda ishtirok etishi muhimligi ta'riflanib, armiyaning tinchlikparvar harakatiga e'tibor qaratiladi.

Harbiy terminologiyada ekvivalenti bo'lmagan leksika uchraganda ko'proq qo'llaniladigan usul bu eksplikatsiyadir. Masalan,

*The defence secretary said it was the second time the vessel had entered British waters in recent months, with **Yantar** also detected “loitering over UK critical undersea infrastructure” in November<sup>46</sup>. – Mudofaa vazirining ta'kidlashicha, bu kema so'nggi oylarda ikkinchi marta Britaniya suvlariga kirgan, **Yantar – Rossiya josuslik kemasi**, noyabr oyida “Buyuk Britaniyaning muhim dengiz osti infratuzilmasi ustida bema'lol kezib yurgani” ham aniqlangan<sup>47</sup>.*

<sup>43</sup> <https://armenpress.am/en/article/1224601>

<sup>44</sup> [https://edition.cnn.com/2025/01/24/middleeast/gaza-checkpoint-us-contractor-israel-intl/index.html?iid=cnn\\_buildContentRecirc\\_end\\_recirc](https://edition.cnn.com/2025/01/24/middleeast/gaza-checkpoint-us-contractor-israel-intl/index.html?iid=cnn_buildContentRecirc_end_recirc)

<sup>45</sup> <https://kun.uz/news/2025/01/27/samolyot-quladi-hafta-dayjesti>

<sup>46</sup> <https://www.bbc.com/news/articles/cqjv7qgpgw28o>

<sup>47</sup> <https://uza.uz/news/2024/12/27/hafta-dayjesti>

Ushbu parchada **Yantar** terminining o'zbek tiliga **Yantar – Rossiya josuslik kemasi** sifatida tarjima qilinishi keng ommaga bu atoqli ot orqali nima ifodalanganligini tasvirlab berish bo'lgan. Yoki,

*The UN Humanitarian Coordinator in Ukraine, Matthias Schmale, reported that during this time, 12,000 people have been killed and civilian infrastructure has been decimated, with over 2,000 attacks on healthcare facilities and two million homes damaged, while 65 per cent of energy production capacity has been destroyed<sup>48</sup>. – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ukrainadagi **gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha koordinatori** Mattias Shmalening ma'lum qilishicha, bu vaqt ichida 12 ming kishi halok bo'lgan va fuqarolik infratuzilmasi vayron bo'lgan, sog'liqni saqlash muassasalariga 2000 dan ortiq hujum uyushtirilgan va ikki million uy vayron bo'lgan, energiya ishlab chiqarish quvvatining 65 % vayron qilingan<sup>49</sup>.*

**The UN Humanitarian Coordinator** termini o'zbek tiliga **gumanitar yordam ko'rsatish bo'yicha koordinatori deb tarjima qilindi**, buning sababi, ingliz tilidagi so'zning ma'nosi izoh berish orqali o'zbek tilida yetkazib berildi.

**Transliteratsiya va transkripsiya** usullari kam qo'llaniladi, bu so'zning shaklini emas, balki kontekstdagi ma'nosini etkazish kerakligi bilan bog'liq. Masalan,

*NATO Defence Ministers held a working dinner, as did NATO Foreign Ministers who met, along with Ukrainian Foreign Minister Andrii Sybiha, for a working dinner of the NATO-Ukraine Council<sup>50</sup>. – NATO mudofaa vazirlari, Ukraina tashqi ishlar vaziri Andriy Sibixa bilan birga NATO-Ukraina kengashining ishchi kechki ovqatida uchrashgani kabi, NATO tashqi ishlar vazirlari ham ishchi kechki ovqat uyushtirishdi<sup>51</sup>.*

**NATO** qisqartmasi o'zbek tili ham **NATO** deya talqinn qilinib, bu yerda tashkilotning nomi xalqaro tashkilot sifatida tan olinganligi va ommaga shu nom ostida tanilganligi sababli o'zgarishsiz saqlanib qolingan.

Adekvat tarjimaga erishish uchun harbiy leksikaning emotsional jihatdan yuklangan birliklari, asosan, uslub va emotsional rangda ularga mos keladigan so'zlar yordamida yetkaziladi, bu mutlaqo o'rinlidir. Shunday qilib, harbiy matnlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: harbiy ishni ifodalash uchun ham, armiyada qo'llaniladigan texnologiyaning turli sohalariga tegishli bo'lgan belgilar, qisqartmalar va maxsus terminlarning keng qo'llanilishi; shuningdek, emotsional jihatdan yuklangan elementlar mavjud bo'lmaganda materialni taqdim etishning aniq uslubi.

Shu sababli, harbiy tarjimonga nafaqat ona va chet tillarini yaxshi bilish, tarjima qilinaotgan materialni to'g'ri yetkaza olish, balki harbiy leksika, harbiy ishlar va tegishli mamlakatlar armiyasi tarkibi bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lish kabi talablar qo'yiladi.

O'zbek tili – Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til. O'zbek tili ham barcha turkiy tillar kabi agglyutinatív tildir. Ingliz tili esa – hind-yevropa

<sup>48</sup><https://news.un.org/en/story/2024/11/1157101>

<sup>49</sup> <https://uza.uz/news/2024/11/15/hafta-dayjesti>

<sup>50</sup> [https://www.nato.int/cps/en/natohq/news\\_236516.htm](https://www.nato.int/cps/en/natohq/news_236516.htm)

<sup>51</sup> <https://kun.uz/news/2024/10/20/hafta-dayjesti>

oilasining german guruhiga kiruvchi analitik tillar sirasiga kiradi<sup>52</sup>. Shunday ekan, harbiy terminlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda o'ziga xos usullari va qiyinchiliklari mavjud. Ushbu jihatlarning tarjima xususiyatlari va uning to'g'riligiga ta'siri katta. Tarjimon terminlarni tarjima qilishda ma'lum strategiya ishlab chiqish zarurati bilan to'qnash kelishi ta'kidlanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida gap tuzilishining tubdan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida gap – ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol)ning ketma-ketligini kuzatsak, o'zbek tilida gap – ega, ikkinchi darajali bo'laklar va kesimdan iboratligini ko'ramiz. *Masalan,*

*They (subj) urged (pred) me (obj) not to come (obj) to Washington (adv.mod.of place). – Ular (subj) meni (obj) Vashingtonga (adv.mod.of place) kelmaslikka (obj) undashdi (pred).*

Terminni tarjima qilishda mos texnikani tanlash uning tuzilishiga bog'liq. Harbiy terminlarni tarjima qilishning usullari harbiy termin turiga bog'liq, chunki termin qisqa va aniq ma'lumotlarni yetkazish tamoyiliga bo'ysunadi, demak, tarjimaning barcha usullari, ya'ni konkretlashtirish, umumlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima tarjima, modilyatsiya, (ayniqsa, abbreviatura va qisqartmalarni tarjima qilishda), transkripsiya va transliteratsiya bilan bog'liq. Terminologik birikmalarni tarjima qilishda shunga o'xshash A+N guruhdan foydalangan holda ketma-ket tarjimadan, shuningdek, tarkibiy qismlarning almashtirilishi yoki o'rin almashtirish tarjimasidan foydalanish yaxshiroqdir.

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursida harbiy terminlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

**1. Aniq ekvivalentlarning yo'qligi.** Ko'plab inglizcha harbiy terminlar uchun o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri leksik ekvivalent yo'q. *Masalan, “counterinsurgency”, “preemptive strike”, “collateral damage”* kabi terminlar o'zbek tilida ko'pincha tavsiflab yoki izoh bilan beriladi. *Masalan, collateral damage* – ko'pincha “yon ta'sir”, “begunoh odamlar qurbon bo'lishi”, “nojo'ya yo'qotishlar” deb izohlanadi.

**2. Terminologik nomuvofiqlik va variantlik.** Bir inglizcha harbiy termin o'zbek tiliga turli variantlarda tarjima qilinishi mumkin. Bu esa bir xilda izchil bo'lishga to'sqinlik qiladi va axborotda chalkashlik keltirib chiqaradi. *Masalan, insurgency* – “qo'zg'olon”, “isyonga chiqish”, “qurolli qarshilik” kabi turli shakllarda tarjima qilinadi.

**3. Milliy-huquqiy va madaniy tafovutlar.** Ba'zi harbiy terminlar o'zbek jamiyati va siyosiy-huquqiy tizimida umuman mavjud emas yoki boshqacha talqin qilinadi. Shu sababli, tarjimada kontekstga mos yoki eng yaqin ekvivalent topish qiyinlashadi. *Masalan, martial law* – ingliz tilida keng ishlatiladi, o'zbek amaliyotida bu atama uchun “harbiy holat” ishlatiladi, lekin mazmunida farq bo'lishi mumkin.

**4. Anglash va talqin farqlari.** Ba'zi inglizcha harbiy terminlar jamiyatda turli darajada anglanadi yoki noto'g'ri talqin qilinadi. Shu sababli, tarjimada axborotning to'g'ri yetkazilmasligi ehtimoli yuqori. *Masalan, surge* – harbiy kontekstda bu

<sup>52</sup> Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Darslik-majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – B. 176.

“qo‘shimcha harbiy kuch yuborish” degani, biroq “ko‘tarilish”, “kuchayish” deb ham tarjima qilinishi mumkin.

5. **Xalqaro va zamonaviy terminlarning o‘zlashtirilishi.** Yangi harbiy terminlarning ko‘pi o‘zbek tilida hali to‘liq o‘zlashmagan yoki bir xil rasmiy talqinga ega emas. Bu esa tarjimonni noqulay holatga soladi. *Masalan, drone strike* – “dron hujumi”, “uchuvchisiz uchish apparati orqali zarba”, “uchuvchisiz havo zarbasi” kabi variantlar mavjud.

6. **Emotsional va ideologik rang-baranglik.** Harbiy atamalar ko‘pincha emotsional yoki mafkuraviy ma‘no yuklaydi. Ingliz tilidagi neytral yoki texnik termin o‘zbek tilida hissiy yoki baholovchi tusda berilishi mumkin, bu esa diskursga ta’sir qiladi. *Masalan, liberation* – ingliz tilida neytral “ozod qilish”, lekin o‘zbek matnlarida “dushmandan ozod etish”, “bosqindan qutqarish” kabi kuchli, hissiy variantlar ishlatiladi.

7. **Sintaktik va stilistik farqlar.** Harbiy terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girishda gap tarkibi va uslubiy o‘ziga xosliklar ham muammo bo‘lishi mumkin, chunki har ikki tilda rasmiy-janr va stilistik talablar farq qiladi. Harbiy terminlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ri va aniq tarjima qilishda eng ko‘p uchraydigan muammolar quyidagilardan iborat: Leksik ekvivalent yetishmasligi; Turli variantlarda tarjima qilish; Milliy va madaniy tafovutlar; Anglash va talqin farqlari; Zamonaviy atamalarning o‘zlashmaganligi; Emotsional-mafkuraviy tafovutlar; Sintaktik va stilistik o‘zgarishlar.

Demak, ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida harbiy terminlarni tarjima qilishda ko‘plab lingvistik hamda madaniy muammolar vujudga keladi. Bir tomondan, ba’zi terminlarning o‘zbek tilida aniq muqobili mavjud emas yoki turli shakllarda qo‘llanadi. Boshqa tomondan, har bir jamiyatning o‘z siyosiy va harbiy tajribasi, madaniyati va til strukturasi mavjudligi sababli, ingliz tilidagi harbiy terminlar o‘zbek tilida to‘liq va izchil aks etmasligi mumkin.

Ayniqsa, yangi yoki xalqaro harbiy terminlar, metaforik va ideologik ma’nosi kuchli iboralar, shuningdek, sintaktik va stilistik tafovutlar tarjimon oldida muammolar tug‘diradi. Natijada tarjimon matn mazmunini, uning emotsional va mafkuraviy rang-barangligini hamda aniqlik va izchillikni saqlash uchun umumlashtirish, konkretlashtirish yoki izohli tarjimadan foydalanishga majbur bo‘ladi. Shu sababli, harbiy terminlar tarjimasida nafaqat lingvistik bilim, balki soha va kontekstni chuqur tushunish, madaniy tafovutlarni hisobga olish va xalqaro standartlarga mos yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida zamonaviy siyosiy diskursda harbiy terminlarning xususiyatlari, shakllanishi va rivojlanishi tizimli ravishda o‘rganildi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi asosiy holatlarda ifodasini topdi:

1. Diskurs fanlararo hodisadir va u deyarli turli ijtimoiy hamda gumanitar soha olimlari foydalanadigan yagona termin bo‘lib, ular bu terminni har safar o‘ziga xos turlicha talqin qiladilar. Tadqiqotchilarning fikricha, kundalik muloqotni tahlil qilish

diskursni o'rganish yo'nalishlaridan biri sifatida juda qiziqarlidir. Diskurs tahli boshqa sohalar uchun ham o'ta muhim bo'lib, ushbu sohalaridagi asosiy tadqiqotlar yetuk olimlar tomonidan olib borilgan va hozirda ham diskurs haqidagi tushunchamiz hamda bilimimizni sezilarli darajada kengaytira oladigan g'oyalar uchun katalizator bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

2. Diskurs turlari haqida so'z borar ekan, u turli yo'nalish va qarashlarga binoan tasniflanadi. Mazkur ilmiy ishning vazifasi siyosiy diskursda harbiy terminlarni tadqiq qilish bo'lganligi sababli biz diskurs, siyosiy diskurs, siyosiy dikursning OAV diskursi hamda harbiy diskurslar bilan kesishuvini tahlilga tortdik.

3. Hozirgi kunda OAV insoniyatning kundalik hayotida muhim o'rin egallab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ko'plab sohalarni qamrab oluvchi axborot hamda ta'sir vositasiga aylandi. Shu sababli, professional sohalarga oid turli terminlar va tushunchalar publitsistik matnlarda faol qo'llanila boshladi, natijada ular o'ziga xos bo'lmagan yangi uslubiy xususiyatlarni o'zlashtirdi. Biz ushbu tadqiqot doirasida aynan harbiy terminlarning publitsistik matnlardagi qo'llanilishini tahlil qildik. Bu terminlarning tarjimasini jarayonida ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki publitsistik matnlarda harbiy terminlar nafaqat aniq ma'noni yetkazish uchun, balki auditoriyada muayyan emotsional va pragmatik ta'sir uyg'otish maqsadida ham qo'llaniladi.

4. Tadqiqot jarayonida "termin" tushunchasining ko'p jihatli ekanligi qayd etildi, ammo har qanday vaziyatda ham u doim muayyan bir bilim sohasi bilan bog'lanadi. Terminlarning asosiy belgilarini chuqur tahlil qilib, quyidagi ta'rifni taklif etdik: termin – bu muayyan bilim sohasi bilan bog'liq bo'lgan hodisa yoki ob'ektning aniq, tizimli ta'rifini ifodalovchi, ekspressiv jihatdan neytral, nominativ xususiyatga ega, zamonaviy ilmiy bilimlarga mos keladigan va ayrim hollarda bir necha tillarda ham to'liq ma'no ekvivalentiga ega bo'lgan so'z yoki iboradir.

5. Terminlarning asosiy vazifalari sifatida nominativ (obyekt yoki hodisani aniq nomlash), ta'riflovchi (obyekt yoki hodisani xususiyatlarini batafsil ifodalash), kommunikativ (ma'lumotni aniq yetkazish) hamda pragmatik (tinglovchi yoki o'quvchiga ma'lum ta'sir ko'rsatish) funksiyalari belgilandi. Bunda pragmatik funktsiya aslida harbiy terminlar uchun tipik emas, ammo aynan publitsistik matnlarda, auditoriyada emotsional ta'sir o'tkazish zarur bo'lganda faol ishlatiladi.

6. Shuningdek, tadqiqot davomida tarjimaning asosiy texnikalarini o'rganib chiqib, miqdoriy hisob-kitoblar usulidan foydalangan holda, publitsistik matnlarda eng ko'p qo'llaniladigan harbiy terminlarni tarjima qilish uchun eng samarali usullar sifatida quyidagilarni belgiladik: modulyatsiya (asl termin ma'nosini o'zlashtirish orqali tarjima qilish; umumlashtirish (maxsus terminlar o'rniga umumiyroq va tushunarliroq terminlardan foydalanish); konkretlashtirish (umumiy terminni aniqroq va tor ma'noda qo'llash; izohlash yoki tushuntirish (terminning ma'nosini kengaytirib, uni aniqroq tushuntirish). Ushbu texnikalarni amaliy jihatdan tekshirish uchun AQSh va Buyuk Britaniya hamda O'zbekistonning yetakchi gazetalari matnlaridan maxsus tanlov yo'li bilan jami ingliz tilida 1000 ta o'zbek tilida 300 ta harbiy termin saralandi va ularning tarjima jarayonidagi qo'llanilishi har tomonlama batafsil tahlil qilindi. Bu amaliy tajriba harbiy terminlarni tarjima qilishda mazmun aniqligi bilan birga

publitsistik matnning pragmatik ta'sirini saqlab qolish qanchalik muhim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tarjima jarayonida yuzaga kelgan asosiy qiyinchiliklarni aniqlab, ular bo'yicha tavsiyalar berdik.

7. Tadqiqot davomida harbiy terminologiyani mavjud uslubiy tasnifini – harbiy-ilmiy, harbiy-texnik va harbiy-ishbilarmonlik uslublarini chuqur o'rganib, ularning publitsistik matnlardagi qo'llanilishini tahlil qildik. Olingan natijalarga ko'ra, publitsistikada eng ko'p ishlatiladigan harbiy terminlar aynan harbiy-ishbilarmonlik uslubiga tegishli bo'lib chiqdi. Bu uslubdagi terminlar matnda kommunikativ vazifani bajargan holda, axborotni yetkazishda muhim semantik yukni ko'taradi. Harbiy-ilmiy uslub terminlari ham kommunikativ xususiyatga ega, ammo ularning qo'llanilishi harbiy-ishbilarmonlikka qaraganda ancha kam. Bunga sabab sifatida harbiy-ilmiy uslub terminlarining asosan ilmiy, tor doiradagi tushunchalarni ifodalashi ko'rsatilishi mumkin.

8. Harbiy-texnik uslubdagi terminlar esa publitsistik matnlarda keng tarqalgan bo'lib, ularning asosiy xususiyatlari nominativ (obyektni yoki hodisani nomlash) va aniqlik (muayyan harbiy-texnik xususiyatlarni ifodalash) funksiyalarini bajarishda namoyon bo'ladi. Ushbu terminlar texnik jarayon yoki obyekt haqida aniq va lo'nda axborot berish uchun xizmat qiladi. Bu terminlar o'zining aniq texnik mazmuni bilan ajralib turadi.

9. Terminlarning publitsistik matnlarda keng ishlatilishining yana bir sababi – ularning pragmatik xususiyatga egaligidir. Pragmatik funksiya orqali terminlar matnni qabul qiluvchiga ma'lum emotsional ta'sir o'tkazadi. Terminlar emotsional yuklamaga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: salbiy-emotsional terminlar; neytral-emotsional terminlar; ijobiy-emotsional terminlar. Publitsistik matnlarda aksariyat harbiy terminlar neytral bo'lishiga qaramay, ular ayni vaqtda kuch va ustunlikni ko'rsatish, ishonch uyg'otish, qo'rqitish taktikasini ifodalash kabi pragmatik ta'sirlarga ega. Bundan tashqari, ushbu terminlar real vaziyatning mohiyatini ham aks ettiradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, harbiy terminlar faqatgina harbiy sohada ishlatilmaydi, balki ular boshqa tizimlar bilan – ilmiy tadqiqotlar, siyosiy tahlillar va biznes strategiyalari bilan ham o'zaro bog'langan holda keng qo'llaniladi. Bu esa, harbiy terminlarning tizimdan tashqarida ham samarali kommunikativ vosita sifatida ishlatilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ**

**АЛИМОВА ЗИЛОЛА САЙДАРИФОВНА**

**ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВОЕННЫХ ТЕРМИНОВ В  
СОВРЕМЕННОМ ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ  
(на примере английского и узбекского языков)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/Fil5032.**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uswlu.uz](http://www.uswlu.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Эргашева Гули Исмоиловна**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Сиддикова Ирода Абдузухуровна**  
доктор филологических наук, профессор

**Курганов Анваржон Мухторович**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD) доцент

**Ведущая организация:**

**Гулистанский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 при Узбекском государственном университете мировых языков. Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка Йули, д.21. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (998 71) 230-12-91; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100138, г.Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка Йули, д.21. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (998 71) 230-12-91.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.

(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.)

**И.М. Тухтасинов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор пед.  
наук, профессор

**Х.Б. Самигова**

Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филол. наук, профессор

**Ж.А. Якубов**

Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филол. наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Мировая обстановка является центром как экономических, так и политических противоречий, и все это подтверждается бесконечными локальными конфликтами, в которых так или иначе участвует все мировое сообщество. Исходя из этих событий, особое внимание уделяется средствам массовой информации (СМИ), поскольку именно они являются основным инструментом политического воздействия на общественное сознание. СМИ являются неотъемлемой частью политического дискурса, а использование в них военных терминов является наиболее удобным способом реализации функции эмоционально-психологического воздействия на аудиторию. Поэтому особого внимания заслуживает изучение лингвистических особенностей военной терминологии в политическом дискурсе.

В любом обществе мира военная терминология напрямую связана с политическими процессами. Вся история человечества в определенной степени является историей войн. В современных условиях, когда СМИ имеют возможность освещать различные политические события, в том числе жизнь армии, военные, политические вопросы, военные конфликты и террористические акты, военные термины регулярно используются политиками, журналистами, дипломатами, а также широкой публикой. Другими словами, использование военных терминов давно перешло из сферы использования военными специалистами в различных военных действиях и повседневной жизни армии в другие области.

Актуальность военной лексики в нашей стране сегодня характеризуется тем, что наряду с постоянно развивающейся тактикой, политическими связями она выступает в качестве международного посредника в уставных и политических переговорах. В последние годы в военной сфере достигнуты значительные успехи. В частности, возрос интерес к культурным и идеологическим различиям, возникающим в этих областях. Важно отметить, что наблюдаются изменения в военном переводе, а также значительный прогресс в развитии и применении исследований. Тем не менее, тот факт, что эта область недостаточно глубоко изучена с научной точки зрения и до сих пор переводится через русский язык, поднимает вопрос о необходимости перевода военных терминов на родной язык с сохранением их значений. Изучение общих военных проблем в переводе имеет важное значение для переводоведения, чтобы найти решение путем привлечения внимания исследователей. Формирование военной терминологии узбекского языка восходит к многотысячелетней истории политических, философских мыслей и мировоззрения. Если говорить непосредственно о военном деле и военном искусстве, то процесс формирования и развития терминологии этой древней области узбекского языка является долгим и сложным, охватывающим несколько веков. В настоящее время наряду с нашим родным языком в английский язык проникают социальные, экономические, политические и

военные термины и выражения. Очевидно, что сравнительно-типологическое исследование различных терминологических пластов не только узбекского, но и английского языка является требованием времени.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 75 «О дополнительных мерах по организации деятельности Центра исследований развития высшего образования и внедрения передовых технологий при Министерстве высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан» от 10 февраля 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года, № ПП-239 «О дополнительных мерах по повышению эффективности системы обучения молодежи иностранным языкам» от 27 июня 2024 года, а также в пункте 6 Оборонной доктрины, принятой 9 января 2018 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-5247 «О мерах по внедрению системы подготовки и обучения военных кадров зарубежных государств в высших военных образовательных учреждениях Министерства обороны и Национальной гвардии Республики Узбекистан» от 20 сентября 2021 года, Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-1017 «О космической деятельности» от 13 января 2025 года, который служит основой для содействия устойчивому социально-экономическому развитию Узбекистана, укреплению его обороноспособности и безопасности, а также задач, определенных на расширенном заседании Совета Безопасности 12 января 2021 года, посвященном «Вопросам широкого внедрения государственного языка и обогащения военного лексикона в деятельности оборонных и правоохранительных органов» и других нормативно-правовых актах Республики Узбекистан.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии

информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Проблема теории дискурса до сегодняшнего дня в мировой лингвистике рассматривалась в работах З.Харриса, М.Фуко, G.Brown & G.Yule, Ю.С.Кубряковой, Н.Д.Арутюновой, М.Л.Макарова, В.И.Карасика<sup>53</sup> и других, институциональный дискурс – в исследованиях Л.С.Бейлинсона, Г.Диани, Т.Кооле и других, политический дискурс – в работах Э.В. Будаева, С.В. Ивановой, М.В. Ильина, Е.А. Нахимовой, Е.О. Опариной, А.П. Чудинова, В.Е. Чернявская, Е.И. Шейгал, Ф. Феррари, Дж. Пратт, Т. ван Дейк и других. В то же время следует особо отметить исследования Д. Ашуровой, Ш. Сафарова, М.Хакимова, А. Нурмонова, У. Рахимова, З. Бурханова, Д. Лутфуллаевой, М.Хайназаровой и М. Курбановой<sup>54</sup> в развитии данной области в узбекском языкознании.

В узбекском языкознании своеобразные особенности терминов и подходов к их переводу отражены в работах ряда лингвистов. В частности, это отражается в исследованиях С.Акобировой, С.Азизова, Э.Бегматова, С.Усмонова, П.Нишонова, О.Ахмедова, Х.Палуановой<sup>55</sup> и других.

Такие ученые, как Х. Дадабоев, Х. Ёдгоров, С. Эркинов, А. Курганов, Л. Мухамедова, Н. Имомиддинова и Л. Казакова<sup>56</sup> внесли свой вклад в развитие

---

